www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

Psixologik konsultatsiyaning ilmiy adabiyotlardagi talqini

N.A. Kozimova

Osiyo xalqaro universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Dunyoqarashni nima o'zgartiradi – ilm, daromad, manfaat
Sh.M. Mirziyoyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosiy muammolarimizdan biri: Jamiyatimozda insonlaning ruhiy holatlarini barqarorlashirishning aktualligiga e'tibor qaratish, shuningdek insonlar bilan munosabatlarda yuzaga keluvchi muammolarning sabablari va yechimlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: psixologik himoya mexanizmlari, information shaxs, oilaviy muhit, kasb, aktual, zamonaviy kasblar , psixologik yondashuv, psixokonsultatsiya.

Bugungi davr informatsion axborot texnologiyalari davri bo`lib unda inson va unga ijtimoiy psixologik ta`sir etuvchi omillar tizimi tobora ortib bormoqda. Bunda, inson qudrati va uning imkoniyatlari yanada ortishi natijasida, odam o`zini–o`zi yo`q qilib yuborish darajasiga borib yetdi. Turli xildagi yangidan–yangi qurollar (yadroviy, bakteriologik, lazer v.b.) sinovlari va "Sovuq urush"ning XXI asrda ham "Mafkuraviy urush" sifatida davom etishi, shuningdek, boshqa ijtimoiy va iqtisodiy holatlar o`smir va uning ijtimoiy psixologik tuzilishiga ta`sir etib kelmoqda. Bugungi globallashuv davrida yashayotgan inson juda ko`p ma`lumotlarni o`zlashtirishi, ularga javob berib borishi, ma`lumotlar natijasida yuzaga kelayotgan muammolarini hal qilib borishi oqibatida, kundalik ijtimoiy muammolar uning ruhiy holati, asab tizimiga turlicha ta`sir ko`rsatmoqda. Inson albatta, jamiyatda yashash va o`z o`rnini topish uchun yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishda turli qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy holdir. Jumladan, jamiyat hayotida jiddiy siyosiy o`zgarishlar yuz berganida inson o`ziga, o`zligiga yanada teranroq nazar tashlashga intilib qoladi. Inson umri va hayoti past–baland, tekis va notekis so`qmoqlardan iborat. Bu holat hayotning o`ziga xos bo`lgan sinovidir. Azaldan bir savol meni qiynab keladi. Oldin o'tmish davrlarda, insonlarda o'sha davrga mos turli muammolar bo'lgan va ular bu muammolarga qanday yechim topishgan. O'sha davrlarda ham psixologni o'rnini bosuvchi biror kasb bo'lganmi? Turli adabiyotlarga yoki xalq og'zaki ijodi, ertaklarga murojaat qilib, shuni angladimki, albatta o'sha davrda ham psixologni o'rnini bosuvchi, insonlar turli qiyinchilik yoki muammolarga duch kelganda, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib, yo'naliruvchi kishilar bo'lgan. Ularni o'sha davrning donishmandlari deb atashgan. Donishmandlar albatta, o'ta aqlli, ilmli va dono bo'lishgan. Har qanday masala yechim topa olish, kishilarga to'g'ri maslahat berish kabi qobiliyatlarga ega bo'lishgan. va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo'lagi sifatida talqin qilganlar. Ularning g'oyalari Platonning jon abadiyligi to'g'risidagi ta'limotiga qarama-qarshi qo'yilgan. Aristotel „Jon to'g'risida"gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi.

O'rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko'rinishdagi g'ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba'zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg'a qadam qo'yildi. Inson xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar qadimgi qo'lyozmalar, yodgorliklarda o'z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan. Yevropa Uyg‘onish davrida Leonardo da Vinchi, X. Vives kabilar psixologiya rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. XVIII asrga kelib M. V. Lomonosov, A. N. Radishchev, G. S. Skovoroda, T. Gobbs, B. Spinoza, G. Leybnits. J. Lokk, K. A. Gelvetsii, A. Golbax, D. Didrolar psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma’lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya XIX asrning 2-yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Nemis olimi V. Vundt Leypsigda 1879-yil dastlabki eksperimental laboratoriyani jihozlashga erishdi.

Psixologik ma'lumotlardan boshqa fanlarda foydalanish imkoniyatlarini tushunish ko‘p jihatdan fanlar tizimida psixologiyaning o‘rniga bog'liq. Hozirgi vaqtda akademik B. M. Kedrov tomonidan taklif qilingan chiziqli bo‘lmagan tasnif eng umumiy qabul qilingan hisoblanadi. U fanlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarning xilma-xilligini, ularning predmeti yaqinligidan ko‘ra namoyon bo‘ladi. Taklif etilayotgan sxema uchburchak shakliga ega bo‘lib, uning uchlari tabiiy, ijtimoiy va falsafiy fanlarni ifodalaydi. Bu holat ushbu asosiy fanlar guruhlarining har birining predmeti va uslubining psixologiya predmeti va metodi bilan qo`ldagi vazifaga qarab yo`naltirilgan real yaqinligi bilan bog`liq.

Psixologiya fan sifatida:

Psixologik bilimlarni olish usullari. dunyoviy psixologik bilim o‘zingiz va boshqa odamlar haqida. Ilmiy psixologik bilimlarning manbalari. Kundalik va ilmiy psixologik bilimlarning asosiy farqlari.

Yillar, zamonlar o‘tib, hamma narsada rivojlanish, o‘sish bo‘lganidek psixologiya sohasida ham o‘sish bo‘ldi. Bizga ma’lumki, psixologik xizmat dastlab 1800 yilda AQSHda paydo bo‘lgan. Ammo, men aynan shu qarashga qo‘shilmayman. Nimaga deganda, bizda ya’ni Sharqda allaqachon bu soha, bu yo‘nalish bor edi. Faqat, yuqorida ta’kidlaganimdek, boshqacha nom bilan, o‘z davriga xos nom bilan atalardi. Inson nega birovning maslahati yoki birov yol ko‘rsatishiga muhtoj? Bugungi kunga qadar, odamlarning atigi 25 foizi psixologga profilaktika chorasi sifatida murojaat qilishadi. Psixologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra inson xatti-harakatlarini tushunishga qaratilgan. Irq va xilma-xillikning ta'siri va ahamiyatiga e'tibor bermasdan, psixologiya to‘liq emas deb ta'kidlash mumkin.

Psixologik maslahat yetarli darajada muvaffaqiyatli bo‘lishi, ya'ni maksimal mumkin bo‘lgan ijobiy natijalarni berishi uchun maslahat jarayonida bir qator shartlar bajarilishi kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.R.Barotov – “Ta’limda psixologik xizmat” o’quv qo’llanma – Buxoro: 2007 yil.
2. V.M.Karimova – “Psixologiya” – Toshkent: 2002 yil.
3. V.M.Karimova,F.Akramova, N.Lutfullayev–“Ijtimoiy psixologiya” Toshkent: 2011 yil.
4. Z.T.Nishanova,D.Qarshiyeva,N.Atabayeva, Z.Qurbonova – “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya”. – Toshkent 2014 yil.
5. Z.T.Nishonova – “Psixologik xizmat” –Toshkent: 2006 yil.
6. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov – “Psixologik xizmat” –4
7. Kozimova, N. A. (2023). HOZIRGI TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALISH VA KASB TANLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JOHLARI. PEDAGOG, 6(5), 739-741.
8. Kozimova, N. A. va Ulug‘ova, S. M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIK MASLAHAT, UNING TURLARI VA UNGA MUROJAAT ETISH SABABLARI. Scientific Impulse, 1(6), 1679-1682.
9. Gamezo M.V. Psixologiya atlasi: Pedagogika institutlari talabalari uchun qo'llama. - M.: Ma'rifat, 1986 yil.
10. Aminov I.I. Psixologiya. Moskva: Omegsha-L, 2005 yil.
11. Levi V.L. O'zingiz bo'lish san'ati. - M.: Bilim, 1991 yil.
12. Psixologik testlar. / Stepanov S.S. / - M .: Eksmo nashriyoti, 2004 yil.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

13. Akbarovna, I. S. (2023). DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET SHAKLLANTIRISH IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(6), 26-29.
14. Akbarovna, I. S. (2023). MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
15. Sitora Akbarovna Ikromova. (2023). Formation of Ideological Immunity to Destructive Information. Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies (2993-2599), 1(9), 50–54.
16. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. Modern Science and Research, 2(10), 333-336
17. Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF ADOLESCENT EMPATHY. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 132–134.